

**O'ZBEKISTONDA ELEKTRON HUKUMAT TIZIMINING HUQUQIY
HAMDA INSTITUTSIONAL TAHLILI**

QURBONOV SHOXRUX QUVONDIQOVICH

TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI

DAVLAT BOSHQARUVI HUQUQI YO'NALISHI MAGISTRANTI

shoxruxsul06@gmail.com

ANNOTATSIYA: *Ushbu maqolada O'zbekistondagi elektron hukumat tizimining huquqiy va institutsional tahlili asoslab berilgan. “Elektron hukumat to‘g‘risida”gi qonun bosqichma bosqich yoritib berilgan. Qonunning qabul qilinishi davlat boshqaruvi va xizmatlar ko‘rsatish sohasidagi ma‘muriy tartib-taomillarni soddalashtirish va qog‘ozbozlikni kamaytirishga xizmat qilishi haqida ma‘lumotlar berilgan. Ushbu maqola shu sohadagi tadqiqotchilar uchun foydali bo‘lishi mumkin.*

KALIT SO‘ZLAR: Elektron hukumat, tizim, huquq, institutsional tahlil, AKT, raqamli iqtisodiyot,

O‘zbekistonda elektron hukumat konsepsiyasi shakllanishi 2000-yillarning boshlarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi fonida boshlangan bo‘lib, bu davr global miqyosda elektron hukumat tizimlarining shakllanish davriga to‘g‘ri keladi. Dastlabki normativ-huquqiy asos sifatida 2002-yilning 30-mayida qabul qilingan “Kompyuterlashtirishni yanada rivojlantirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish to‘g‘risida”gi PF-3080-sonli Prezident farmoni xizmat qilgan. Shuningdek, 2003-yilgi “Axborotlashtirish to‘g‘risida”gi qonun ham asosiy huquqiy hujjatlardan biri bo‘lgan. Ammo elektron hukumat konsepsiyasining to‘laqonli huquqiy asos sifatida 2012-yilning 21-martida “O‘zbekiston Respublikasida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-1730-sonli qaror bilan bog‘liq. Shu qarorga binoan “Elektron hukumat tizimini joriy etish konsepsiyasi” ishlab

chiqilgan. 2013-yilning 27-iyunda esa “O‘zbekiston Respublikasining milliy axborot-kommunikatsiya tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-1989-sonli qaror qabul qilingan.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 28-apreldagi PQ-4699-sonli “Raqamli iqtisodiyot va Raqamli hukumatni keng joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi hamda Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 25-iyundagi 409-sonli “O‘zbekiston Respublikasi axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi tizimidagi ayrim tashkilotlarning faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari asosida elektron hukumat faoliyatining institutsional asoslari bo‘lib hisoblanadi.

Vazirlar Mahkamasi tomonidan 2024-yil 4-oktabrda “Rahbar kadrlarni baholash markazini tashkil etish to‘g‘risida”gi qaror qabul qilindi. “Birlashgan Millatlar Tashkilotining “Elektron hukumat tadqiqoti” hisobotida O‘zbekiston Respublikasining reytingini yaxshilashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Prezident qarori (PQ-308, 14.09.2023 y.) qabul qilindi.

Elektron hukumat konsepsiyasining huquqiy bazasi 2015-yilning 9-dekabrida qabul qilingan “Elektron hukumat to‘g‘risida”gi qonun bilan yanada mustahkamlandi. Bu qonun elektron hukumat tizimining asosiy tushunchalarini, faoliyat yo‘nalishlari va prinsiplarini, davlat organlari va boshqa tashkilotlarning vakolatlari, elektron davlat xizmatlari hamda idoralararo elektron hamkorlikning huquqiy asoslarini aniq belgilab berdi.

Qonunning qabul qilinishi bir qator sabablar bilan bog‘liq edi. Avvalo, davlat boshqaruvi va xizmatlar ko‘rsatish sohasidagi ma‘muriy tartib-taomillarni soddalashtirish va qog‘ozbozlikni kamaytirish zarur edi. Shuningdek, aholining davlat xizmatlaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish, davlat organlari faoliyatining shaffofligini oshirish va korrupsiyani kamaytirish kabi vazifalar ham mavjud edi. Qonun 5 bob va 34 moddadan iborat bo‘lib, elektron hukumatning umumiy qoidalari, uning asosiy tushunchalari, tamoyillari va huquqiy asoslarini belgilab berdi. Qonunning asosiy qoidalari quyidagilardan iborat.

Birinchidan, elektron hukumat tizimining faoliyat ko‘rsatish prinsiplari

belgilangan bo'lib, ularga davlat xizmatlaridan bepul foydalanish, idoralararo hamkorlik, axborot xavfsizligini ta'minlash, shaxsiy ma'lumotlar maxfiyligini himoya qilish, axborot tizimlari va resurslarining uzluksiz faoliyat ko'rsatishi kabilar kiradi.

Ikkinchidan, qonun elektron hukumatning asosiy yo'nalishlarini aniq belgilab bergan, ya'ni davlat organlari faoliyati samaradorligini oshirish, davlat xizmatlarini elektron shaklda ko'rsatish, davlat organlari va jismoniy hamda yuridik shaxslar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning yangi mexanizmlarini joriy etish.

Uchinchidan, davlat organlari va tashkilotlarning elektron hukumat sohasidagi vakolatlari, huquqlari va majburiyatlari aniq belgilangan.

To'rtinchidan, Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali hamda davlat organlari rasmiy veb-saytlarining huquqiy maqomi va ulardan foydalanish tartibi aniq belgilangan.

Beshinchidan, elektron hukumat sohasidagi axborotlashtirish va idoralararo elektron hamkorlik masalalari huquqiy jihatdan tartibga solingan¹.

Oltinchidan, elektron davlat xizmatlari ko'rsatish tartibi, elektron hujjat aylanishi va elektron raqamli imzo qo'llash masalalari aniq belgilangan.

Yettinchidan, elektron hukumat infrastrukturasini elementlari, jumladan markaziy ma'lumotlar bazalari, davlat axborot tizimlari va resurslari, identifikatsiya tizimlarining huquqiy maqomi aniq belgilangan.

Sakkizinchidan, elektron hukumat tizimida axborot xavfsizligini ta'minlash va shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish mexanizmlari belgilab berilgan. Bu qonun O'zbekistonda elektron hukumat tizimining rivojlanishiga jiddiy turtki berdi va keyingi me'yoriy-huquqiy hujjatlar uchun asos bo'lib xizmat qildi.

Mazkur qonunda elektron hukumat va unga alqodaro bo'lgan tushunchalar, ularning ta'rifi huquqiy jihatdan mustahkamlanib qo'yilgan.

elektron hukumat - davlat organlarining jismoniy va yuridik shaxslarga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llash yo'li bilan davlat xizmatlari

¹ T.N. Nishonboev. Davlat boshqaruvi takomillashuvida "Elektron hukumat" tizimi // "Jamoat va boshqaruv", №1, 2006

ko'rsatishga doir faoliyatini, shuningdek idoralararo elektron hamkorlik qilishni ta'minlashga qaratilgan tashkiliy-huquqiy chora-tadbirlar va texnik vositalar tizimi;

davlat xizmati - ariza beruvchilarning so'rovlariga ko'ra amalga oshiriladigan, davlat organlarining vazifalarini bajarish bo'yicha ular tomonidan ko'rsatiladigan xizmat. Agar qonunchilikka muvofiq davlat xizmatlari ko'rsatish funksiyalari boshqa tashkilotlar zimmasiga yuklatilgan bo'lsa, ular ham davlat xizmatini ko'rsatishlari mumkin;

elektron davlat xizmatining reglamenti - elektron davlat xizmati ko'rsatishga doir tartibni va talablarni belgilovchi normativ-huquqiy hujjat;

elektron davlat xizmati - axborot-kommunikatsiya texnologiyalari qo'llanilgan holda ko'rsatiladigan davlat xizmati.

2018-yilda qabul qilingan "Davlat xizmatlari ko'rsatishshning milliy tizimini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5425-sonli farmoni² va 2018-yilning 13-dekabrida qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasi davlat boshqaruviga raqamli iqtisodiyot, elektron hukumat hamda axborot tizimlarini joriy etish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5598-sonli farmonlar³ orqali elektron hukumat tizimining huquqiy bazasi yanada takomillashtirildi. 2020-yilda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasining Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni faol rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4699-sonli qarori⁴ va 2020-yilning 5-oktyabrida imzolangan "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasini tasdiqlash va amalga oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-6079-sonli farmon⁵ elektron hukumat tizimining rivojlanishi uchun strategik ahamiyatga ega bo'lgan huquqiy asoslar hisoblanadi. Shu tariqa O'zbekistonda elektron hukumat konsepsiyasi dastlab axborotlashtirish jarayoni doirasida shakllanib, keyinchalik alohida huquqiy maqomga ega bo'ldi va bugungi kunda raqamli iqtisodiyot tarkibiy qismi sifatida rivojlanib bormoqda.

O'zbekistonda elektron hukumat sohasidagi davlat siyosatining asosiy

² <https://lex.uz/acts/-4720389>

³ <https://lex.uz/docs/-4103415>

⁴ <https://lex.uz/docs/-4800657>

⁵ <https://lex.uz/docs/5030957>

www.tadqiqotlar.uz

yoʻnalishlari meʼyoriy-huquqiy hujjatlarda, xususan “Elektron hukumat toʻgʻrisida”gi qonunda, “Raqamli Oʻzbekiston – 2030” strategiyasida va boshqa tegishli hujjatlarda oʻz aksini topgan. Davlat siyosatining birinchi muhim yoʻnalishi davlat boshqaruv tizimini raqamlashtirish va maʼmuriy jarayonlarni optimallashtirishdir. Bu yoʻnalish davlat organlari faoliyatida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish, maʼmuriy tartib-taomillarni soddalashtirish, byurokratik toʻsiqlarni bartaraf etish va davlat boshqaruvidagi korrupsiyani kamaytirish masalalarini qamrab oladi. Ikkinchi muhim yoʻnalish bu davlat xizmatlarini elektron shaklda koʻrsatish tizimini rivojlantirishdir. Bu yoʻnalish doirasida hukumat tomonidan davlat xizmatlari koʻrsatishning yagona portalini va davlat xizmatlari markazlari ishini yoʻlga qoʻyish, mobil ilovalar orqali davlat xizmatlarini koʻrsatish tizimini kengaytirish, masofaviy xizmatlar koʻrsatishni rivojlantirish, identifikatsiya tizimlarini takomillashtirish masalalari muhim ahamiyat kasb etadi. Uchinchi yoʻnalish bu ochiq maʼlumotlar tizimini rivojlantirish va davlat organlari faoliyatidagi shaffoflikni taʼminlashdir. Bu yoʻnalish doirasida hukumat tomonidan davlat organlarining ochiq maʼlumotlar portalini yaratish, davlat organlari tomonidan ochiq maʼlumotlar toʻplamlarini eʼlon qilish mexanizmlarini ishlab chiqish, fuqarolarning davlat organlari faoliyati toʻgʻrisidagi maʼlumotlardan erkin foydalanishini taʼminlash masalalari muhim ahamiyat kasb etadi. Toʻrtinchi yoʻnalish bu elektron hukumat infratuzilmasini rivojlantirishdir. Bu yoʻnalish doirasida hukumat tomonidan telekommunikatsiya infratuzilmasini rivojlantirish, internet tarmogʻiga kirish imkoniyatlarini kengaytirish, sunʼiy yoʻldosh va mobil aloqa tizimlarini takomillashtirish, maʼlumotlarni qayta ishlash markazlarini tashkil etish masalalari muhim ahamiyat kasb etadi. Beshinchi yoʻnalish bu elektron hukumat sohasida kadrlar tayyorlash va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasida taʼlim tizimini rivojlantirishdir. Bu yoʻnalish doirasida hukumat tomonidan axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasidagi mutaxassislarni tayyorlash, davlat xizmatchilarini elektron hukumat sohasida qayta tayyorlash, aholining kompyuter savodxonligini oshirish masalalari muhim ahamiyat kasb etadi. Oltinchi yoʻnalish bu elektron

hukumat sohasida axborot xavfsizligini ta'minlash va shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilishdir. Bu yo'nalish doirasida hukumat tomonidan elektron hukumat tizimlarida axborot xavfsizligini ta'minlash, kiberhujumlardan himoyalaniish, elektron hukumat tizimi orqali olinadigan shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish mexanizmlarini ishlab chiqish masalalari muhim ahamiyat kasb etadi. Yettinchi yo'nalish bu elektron hukumat sohasida xalqaro hamkorlikni rivojlantirishdir. Bu yo'nalish doirasida hukumat tomonidan elektron hukumat sohasida ilg'or xorijiy tajribani o'rganish va joriy etish, elektron hukumat sohasidagi xalqaro reytinglarda O'zbekistonning o'rnini yaxshilash, elektron hukumat sohasida xalqaro loyihalarni amalga oshirish masalalari muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekistonda elektron hukumat tizimining institutsional tuzilishi murakkab va ko'p bosqichli bo'lib, uning shakllanish jarayoni bir necha yillar davomida kechgan. Elektron hukumat tizimiga rahbarlik qiluvchi asosiy organ Raqamli texnologiyalar vazirligi hisoblanadi. Bu vazirlik 2018-yilning fevralida Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi sifatida tashkil etilgan bo'lib, 2020-yilda Raqamli texnologiyalar vazirligi deb qayta nomlangan. Bu vazirlik elektron hukumat sohasidagi davlat siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirish, elektron hukumat tizimlarini joriy etish va rivojlantirish, axborot xavfsizligini ta'minlash, raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish kabi vazifalarga javobgardir. Vazirlik tarkibida bir necha maxsus bo'linmalar va departamentlar mavjud bo'lib, ular elektron hukumat tizimining turli yo'nalishlari bilan shug'ullanadi.

Keyingi muhim institutsional tuzilma "Elektron hukumat va raqamli iqtisodiyot loyihalarini boshqarish markazi"⁶ hisoblanadi. Bu markaz 2018-yilning dekabrda tashkil etilgan bo'lib, uning asosiy vazifasi elektron hukumat va raqamli iqtisodiyot sohasidagi loyihalarni muvofiqlashtirish va ularning samaradorligini monitoring qilishdan iborat. Markaz elektron hukumat tizimini joriy etish bo'yicha loyihalar portfelini shakllantirish, loyihalarni texnik-iqtisodiy jihatdan baholash, loyihalarning amalga oshirilishini monitoring qilish va nazorat qilish kabi

⁶ Raqamli hukumat loyihalarini boshqarish markazining rasmiy veb-sayti: <https://e-gov.uz/>
www.tadqiqotlar.uz

vazifalarni bajaradi.

Shuningdek, elektron hukumat tizimidagi muhim institutsional tuzilmalardan biri Yagona integrator hisoblanadi. Yagona integrator vazifasini “UZINFOCOM” markazi⁷ bajaradi. Bu markazning asosiy vazifasi markazlashgan axborot tizimlari va ma'lumotlar bazalarini yaratish va rivojlantirish, idoralararo elektron hamkorlik platformasini ishlab chiqish va joriy etish, davlat organlari axborot tizimlari va resurslarini integratsiyalash kabi vazifalarni amalga oshirishdan iborat.

Bulardan tashqari, Davlat xizmatlari agentligi ham elektron hukumat tizimining muhim institutsional tarkibiy qismidir. Bu agentlik 2017-yilda tashkil etilgan bo'lib⁸, uning asosiy vazifasi davlat xizmatlarini ko'rsatish jarayonlarini muvofiqlashtirish va tartibga solish, davlat xizmatlarining yagona reyestrini yuritish, davlat xizmatlari ko'rsatish sifatini monitoring qilish kabi vazifalarni bajarishdan iborat. Davlat xizmatlari markazlari agentlik tasarrufida bo'lib, ular orqali aholi va tadbirkorlik subyektlariga davlat xizmatlari ko'rsatiladi.

Yana bir muhim institutsional tuzilma Axborot xavfsizligi markazi hisoblanadi. Bu markaz 2013-yilda tashkil etilgan bo'lib⁹, uning asosiy vazifasi elektron hukumat tizimlarida axborot xavfsizligini ta'minlash, kiberhujumlardan himoyalash mexanizmlarini ishlab chiqish va joriy etish, axborot xavfsizligi sohasida nazorat va monitoring olib borish kabi vazifalarni bajarishdan iborat. Bulardan tashqari, O'zbekistonda elektron hukumat tizimiga bilvosita aloqador bo'lgan bir qator institutsional tuzilmalar ham mavjud bo'lib, ularga Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni rivojlantirish bo'yicha respublika kengashi, “IT Park” innovatsion texnoparklar, “Kelajak Bunyodkori” markazi, Muhammad al-Xorazmiy nomidagi axborot-kommunikatsiya texnologiyalari yo'nalishiga ixtisoslashgan maktablar kabi tuzilmalar kiradi.

“Raqamli hukumat” tizimi doirasida, ijro etuvchi hokimiyatning markaziy apparatlari, qog'ozsiz ish yuritishga o'tish jarayonini jadallashtirish maqsadida

⁷ UZINFOCOM tashkilotining rasmiy veb-sayti: <https://uzinfocom.uz/uz/company/about>

⁸ Davlat xizmatlari agentligining rasmiy veb-sayti: www.davxizmat.uz

⁹ Kiberxavfsizlik markazining rasmiy veb-sayti: <https://csec.uz/uz/www.tadqiqotlar.uz>

“Ijro.gov.uz” ijro intizomi idoralararo yagona elektron tizimi negizida ishlab chiqilgan “edo.ijro.uz” moduli orqali elektron hujjat aylanish tizimiga o‘tkaziladi.

“Ma’muriy islohotlar doirasida raqamli texnologiyalar sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Prezident farmoni (PF–76-son, 24.05.2023 y.) qabul qilindi. Farmonga ko‘ra, Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali raqamli xizmatlar va servislar ko‘rsatish hamda ularning natijasini olishning yagona nuqtasi hisoblanadi. Yagona portal orqali ko‘rsatiladigan xizmatlardan foydalanish bosqichlari “3 qadam” tamoyili asosida maqbullashtiriladi. 2023-yil 1-dekabrgacha fuqarolar raqamli xizmatlardan mustaqil foydalanishlari uchun davlat xizmatlari markazlarida birinchi bosqichda 14 ta “Raqamli xizmat nuqta”lari tashkil etiladi.

2024-yil 1-yanvargacha raqamli xizmat va servislar, elektron to‘lovlar, media resurslar imkoniyatini birlashtirishni nazarda tutuvchi Yagona portal orqali xizmatlarni taqdim etishning yangi dasturiy ta’minot shakli joriy etiladi.

2023-yil 1-sentyabrdan ijro etuvchi hokimiyatning markaziy apparatlari “edo.ijro.uz” tizimiga o‘tkaziladi. Shuningdek, respublika va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari axborot tizimlarida “Raqamli hukumat” tizimining yagona identifikatorlari hamda ma’lumotnomalar va tasniflagichlar registri axborot tizimida joylashtirilgan yagona umumdavlat ma’lumotnomalar va tasniflagichlardan foydalanishlari shart bo‘ladi.

Davlat xizmatchilarining bu boradagi ko‘nikmalarini oshirishda Respublika va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarining axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish uchun mas’ul xodimlari malakasini oshirish va reyting baholashni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi Hukumat qarori (208–son, 20.05.2023 y.) qabul qilindi. Qarorga muvofiq, 2023-yil 1-iyuldan davlat organlarining AKT sohasiga ma’sul xodimlari 3-yilda bir marta malakasini oshiradi.

Mazkur xodimlarning malakasini oshirishga Raqamli texnologiyalar vazirligi mas’ul hisoblanadi. Malaka oshirish kursi 24 soatdan kam bo‘lmasligi lozim, kursni ta’momlagan xodimlar ikki oyda reyting baholashdan o‘tkaziladi. Malaka oshirish bilan bog‘liq barcha xarajatlar ularni yuborgan davlat organlarining

mablag'lari hisobidan qoplanadi. 2023-yil 1-avgustdan davlat organlarining birinchi rahbarlari raqamli texnologiyalarni keng joriy etish va loyihalarni samarali amalga oshirish bo'yicha Davlat boshqaruvi akademiyasida qisqa muddatli kurslarda o'qitiladi.

XULOSA

Umumiy xulosa qilib aytganda, O'zbekistonda elektron hukumat tizimining me'yoriy-huquqiy asoslari va institutsional tuzilishi yetarli darajada shakllangan bo'lib, tizimning barqaror rivojlanishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratilgan. Ammo zamonaviy texnologik rivojlanish talablari va xalqaro standartlarga muvofiqlik zarurlari tufayli tizimni doimiy takomillashtirib borish, mavjud muammolarni hal etish va istiqbolli yo'nalishlarda islohotlarni davom ettirish lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

- 1.T.N. Nishonboev. Davlat boshqaruvi takomillashuvida "Elektron hukumat" tizimi // "Jamoat va boshqaruv", №1, 2006
2. <https://lex.uz/acts/-4720389>
3. <https://lex.uz/docs/-4103415>
4. <https://lex.uz/docs/-4800657>
5. <https://lex.uz/docs/5030957>
6. Raqamli hukumat loyihalarini boshqarish markazining rasmiy veb-sayti: <https://e-gov.uz/>
7. UZINFOCOM tashkilotining rasmiy veb-sayti: <https://uzinfocom.uz/uz/company/about>
8. Davlat xizmatlari agentligining rasmiy veb-sayti: www.davxizmat.uz
9. Kiberxavfsizlik markazining rasmiy veb-sayti: <https://csec.uz/uz/>